


## Gelmintlarga qarshi keng ta'sir doirali dori vositasi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti tomonidan gelmintlarga qarshi keng ta'sir doiraga ega Albendazol dori vositasi ishlab chiqilgan. Ushbu dori vositasi ichakdagi mono- va poliinvaziyalarga qarshi yuqori samarali bo'lib, ichak va to'qima shakldagi gelmintlarga ayniqsa, ularning tuxum, lichinka va katta gelmintlarga qarshi kuchli ta'sirga ega. Albendazolning gelmintlarga qarshi kuchli ta'siri tubilinni polimerizatsiya jarayonini susaytirishga va shuning oqibatida metobalizmni susayishi natijasida gelmintlarning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi.



Albendazolning boshqa turdosh dorilardan afzalligi shundaki, trixotsefalez va ankilostomidoz kasalliklarida dori bir marotaba beriladi, sababi, gelmintlarga qarshi yuqori samarali va davolashning oddiy tizimiga ekanligi bilan baholanadi.

Hozirda ushbu dori vositasi "Nobel Pharmsanoat" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarishga joriy qilingan.